

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Fil.70.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

ISLOMOVA SHOIRA XUSHBOKOVNA

QASHQADARYO QIPCHOQ SHEVALARI FRAZEOLOGIZMLARINING
MA’NOVIY VA LEKSIKOGRAFIK TALQINI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Qarshi – 2025

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertatsion abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological Science**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Islomova Shoira Xushbokovna

Qashqadaryo qipchoq shevalari frazeologizmlarinng ma'noviy va leksikografik talqini..... 5

Islamova Shoira Khushbokovna

Semantic and lexicographical interpretation of phraseologisms of the Kashkadarya kipchak dialects..... 25

Исламова Шаира Хушбаковна

Семантическая и лексикографическая интерпретация фразеологизмов Кашкадарьинских кипчакских диалектов..... 47

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

List of published works
Список опубликованных работ..... 51

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Fil.70.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

ISLOMOVA SHOIRA XUSHBOKOVNA

QASHQADARYO QIPCHOQ SHEVALARI FRAZEOLOGIZMLARINING
MA’NOVIY VA LEKSIKOGRAFIK TALQINI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Qarshi – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Fil4546 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Qarshi davlat universiteti veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yuldosheva Nilufar Ergashevna
filologiya fanlari doktori, professor

Mamatov Abdi Eshonqulovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2021.Fil.70.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "25" avgust soat 10⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180119, Qarshi sh., Qarshi-Shahrisabz shoh ko'chasi, A. Avloniy 15-uy. Tel.: (+998 75 221-21-04; faks: (+998 75) 220-02-10; e-mail: kasu_info@edu.uz). Qarshi davlat universiteti, Filologiya fakulteti faollar zali.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin 685 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180119, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "15" avgust kuni tarqatildi.
(2025-yil "15" avgust daqi 5 raqamli reyestr bayonnomasi).


D. To'rayev
ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
filol.f.d., professor


X. Yo'ldasheva
ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
filol.f.d. (DSc), dotsent

E. Jabborov
ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi,
filol.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida milliy til tadqiqi hozirgi kunda ham dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Har qanday lingvistik hodisa zamirida umumxalq tilining ijtimoiy-lisoniy imkoniyat va xususiyatlari mujassamlashganligi mazkur masalalar doirasidagi tadqiqotlarning ahamiyatlilik darajasi bilan birga murakkablik holatini belgilovchi omildir. Shu bois ham muayyan milliy tilning tadqiqi mavjud til birliklarining lisoniy qiymatini, milliy va adabiy til, til va madaniyat munosabatidagi oʻrni va ahamiyatini xolis hamda obyektiv baholashga xizmat qilishi keng eʼtirof etilmoqda. Shuningdek, milliy tilning yashovchanligi hamda milliy muloqotning oʻziga xos ifoda va vositalari faolligini taʼminlash shevalar boʻyicha keng koʻlamli ilmiy izlanishlarni taqozo qilmoqda. Globallashuv jarayoni yuqori surʼatlarda davom etayotgan ayni zamonda xalq shevalari leksikasini milliy asoslarda tadqiq qilish har bir jamiyat uchun ijtimoiy-madaniy zarurat darajasida baholanmoqda.

Dunyo tilshunosligida lahja va shevalar tadqiqi masalalariga nisbatan hamisha alohida eʼtibor qaratib kelinadi. Sheva leksikasi, leksikografiyasi masalalari tadqiqi va uning doirasidagi vazifalar ham dolzarbligini saqlab kelmoqda. Milliy til va uning birliklariga xos ijtimoiy-lisoniy, milliy-madaniy xususiyat va vazifalarni aniqlash, baholash, lugʻatlarda aks ettirish, adabiy til va dialektal leksikaning oʻzaro munosabatini belgilash, shevashunoslik tadqiqotlarini amalga oshirish va ularni ragʻbatlantirish milliy tilshunoslik taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega sanaladi.

Keyingi yillarda oʻzbek tilshunosligida ham til va nutq hodisalarining tadqiqi turli aspektda, keng koʻlamda izchil amalga oshirilmoqda. Har bir tilning oʻziga xosligi til egalarining tafakkuri, dunyoqarashi, madaniyati va maʼnaviyati, turmush tarzi orqali namoyon boʻladi. Shunga koʻra, til hodisalarini turli omil va vositalar bilan munosabati asosida oʻrganish ham nazariy, ham amaliy jihatdan samarali natijalarni taqdim qiladi. Shu jihatdan, oʻzbek adabiy tili asosidagi Qashqadaryo qipchoq shevalari frazeologizmlarining oʻrganilishi tilda etnografik xususiyatlar, xalqning turmush tarzi va dunyoqarashi, moddiy va maʼnaviy madaniyat doirasidagi masalalarning tadqiqi bilan bogʻliqlik kasb etadi. Zero, “Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat oʻz milliy manfaatlarini taʼminlash, bu borada, avvalo, oʻz madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir”¹.

Oʻzbek tili lugʻat boyligini tashkil qilgan til birliklarining til tizimida tutgan oʻrni, vazifasi, maʼnaviy koʻlami, muloqot vaziyatida egallagan oʻrni va nutqiy faoliyat samaradorligini taʼminlashdagi ahamiyati kabi lisoniy va nolisoniy xususiyatlarini tadqiq qilish orqali oʻzbek tilining oʻziga xos mental tabiati, til va

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ–5850-сон Фармони. Манба: <http://lex.uz/docs/4561730>.

madaniyat, til va ruhiyat, til va jamiyat munosabatlari ochib beriladi. Shu ma'noda, adabiy til asosida turgan tabiiy til – lahja va shevalarning muloqot vositasi, nutq faoliyati bilan bog'liq lingvistik va ekstralingvistik tadqiqi alohida ahamiyat kasb etishini tan olish lozim. O'zbek adabiy tili asosidagi Qashqadaryo qipchoq shevalari frazeologizmlarining o'rganilishi tilda etnografik xususiyatlar, xalqning turmush tarzi va dunyoqarashi, moddiy va ma'naviy madaniyati bilan bog'liq masalalar yechimiga xizmat qiladi, bu esa mazkur tadqiqotimiz mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqenini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF–5850-son, 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF–6084-son Farmonlari, 2017-yil 28-iyuldagi “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida”gi PQ–3160-son, 2019-yil 3-maydagi “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ–4307-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. G'arbiy Yevropa va Amerika tilshunosligida frazeologiya tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida ajratilmaydi. Shunga ko'ra, G'arb tilshunosligida frazeologiya sohasiga oid alohida yaratilgan ilmiy asarlar mavjud emas. Biroq frazeologiya nazariyasining ilk tadqiqotchisi Sharl Ballining frazeologiya tahliliga bag'ishlangan asarlari hamda N.R. Norrick, B. Altenberg, A.De.La Granja, R. Glezer, G. Knappe, S.Y. Chernobay, M.L. Beshay, A. Vrbins, M. Vrbins kabi olimlarning monografiya va maqola²larida frazeologik birliklarning lisoniy xususiyatlari o'rganilgan.

² Балли Ш. Французская стилистика. – М.: Эдиториал УРСС, 2001. – 416 с.; Norrick N.R. How proverbs mean: semantic studies in English proverbs / Norrick N.R. – Berlin; New York: Mouton, 1985. – 213 p.; Bengt Altenberg. On the phraseology of spoken English // The evidence of recurrent word combinations // *Phraseology*. A.P. Cowie. – Oxford: Clarendon Press, 1998. – P. 101–121; Álvarez de la Granja, María (ed.). Fixed expressions in cross-linguistic perspective // a multilingual and multidisciplinary approach. – Hamburg: Verlag Dr. Kovac, 2008. – 382 p.; Gläser, Rosemarie. The Stylistic potential of phraselological units in the light of genre analysis // *Phraseology*. Ed. A.P. Cowie. – Oxford: Clarendon Press, 1998. – P. 25–45; Knappe, Gabriele. Idioms and Fixed Expressions in English Language Study before 1800. – Peter Lang, 2004. – 664 p.; Чернобай С.Е. Определение идиомы в современной фразеологии // “Филология. Социальные коммуникации”. – Украина: Симферополь, 2011. Том 24 (63). – №3. – С. 320–321; Beshaj Ma. Lediana. Phraseological Units Used in the Functional Styles in English and Albanian Language // *Mediterranean Journal of Social Sciences*// pub. by MCSER-CEMAS-Sapienza University of Rome: Vol–4. – №2; May, 2013. – P. 453–456; Vrbinc Alenka., Vrbinc Marjeta. Phraseological units with onomastic components: The case of English and Slovene // *Revista de Lingüística Teórica y Aplicada*. Concepción (Chile), 52 (1), I Sem. 2014. – P. 133–153.

Frazeologiya masalalari tadqiqida rus olimlari A.A. Potebnya, A.A. Shaxmatov asarlari alohida o‘rin egallaydi, keyinchalik ushbu soha masalalari A.M. Emirova, V.V. Vinogradov, A.V. Kunin, N.N. Amosova, I.I. Chernisheva, A.M. Babkin, V.L. Arxangelskiy, B.A. Larin, N.M. Shanskiy kabi tilshunoslar tomonidan tadqiq qilingan³.

Frazeologiya masalalari qator turkiy tillar materiallari asosida ham o‘rganilgan. Xususan, S.K. Kenesbayev, S.N. Muratov, Z.G. Uraksin, A. Annamamedov, G.A. Bayramov⁴ singari olimlarning ilmiy izlanishlari ham turkiy frazeologiyaning taraqqiyotida sezilarli iz qoldirdi. O‘zbek frazeologiyasiga doir dastlabki ishlar XX asrning 50-yillar boshida yuzaga keldi. O‘zbek tilshunosligida frazeologiya masalalari Sh. Rahmatullayev, Y.D. Pinxasov, A. Shomaqsudov, M. Husainov, G‘. Salomov, M. Ro‘ziqulova, A.E. Mamatov, B. Yo‘ldoshev, Sh.T. Almamatova, M.Y. Vafoyeva⁵ kabi olimlar tomonidan tadqiq qilindi. Shuningdek, sheva iboralari yuzasidan ham muayyan tadqiqotlar amalga oshirilganligini kuzatamiz⁶.

Ushbu tadqiqotlar orqali o‘zbek tili frazeologiyasining asosiy vazifa va masalalari, frazeologizmning belgi(lik) xususiyati, frazeologik shakldoshlik,

³Эмирова А.М. Некоторые актуальные вопросы современной русской фразеологии. – Самарканд: СамГУ, 1972. – 97 с.; Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке // Избранные труды. Лексикология и лексикография. – Москва: Наука, 1977. – С. 140–161; Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Москва: Высшая школа, 1986. – 336 с.; Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. – Ленинград, 1963. – 208 с.; Чернышева И.И. Фразеология современного немецкого языка. – Москва: Высшая школа, 1970. – 199 с.; Бабкин А.М. Русская фразеология, ее развитие, источники и лексикографическая разработка. – Ленинград, 1970. – 263 с.; Архангельский В.Л. Основы теории устойчивых фраз и проблемы общей фразеологии. – Ростов: Изд-во РГУ, 1964. – 315 с.; Ларин Б.А. Очерки по фразеологии // Б.А. Ларин. История русского языка и общее языкознание (избранные работы). – Москва, 1977. – С. 125–149. Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. Изд. 3-е, испр. и доп. – Москва: Высшая школа, 1996. – 192 с.

⁴Кенесбаев С.К. Қазақ тили қалыптанған соз топтары (қос создер, идиодер мен фразалар): филол. илмдари докт. ... дисс. – Алма-Ата, 1944. – 225 б.; Жаъфаров С. Ҳозирги замон озарбайжон тили лексикаси. – Боку, 1958. – Б. 125; Муратов С.Н. Устойчивые словосочетания в тюркских языках. – Москва, 1961. – С. 192; Уракин З.Г. Фразеология башкирского языка. – Москва: Наука, 1975. – С. 193. Аннамamedов А. Туркман тилининг фразеологияси. – Ашхабад, 1978. – Б. 125; Байрамов Г.А. Озарбайжон тили фразеологияси асослари. – Боку: Маариф, 1978. – С. 193.

⁵Рахматуллаев Ш.У. Основные грамматические особенности образных глагольных фразеологических единиц современного узбекского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1952. – 16 с.; Пинхасов Я.Д. Фразеологические выражения в языке произведений Хаида Алимджана: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1953. – 19 с.; Шамаксудов А.Ш. Язык сатиры Муками (лексика и фразеология): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1956. – 18 с.; Хусайнов М. Фразеология прозы писательницы Айдын: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Самарканд, 1959. – 18 с.; Саломов Ф. Мақол ва идиомалар таржимаси. – Тошкент, ЎзФА нашриёти, 1961. – 162 б.; Рўзиқуллова М. Ўзбек тилида идиомалар: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарканд, 1966. – 49 б. Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент, 1991. – Б. 274; Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 1993. – 294 б.; Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2000. – Б. 128. Алмаматава Ш.Т. Ўзбек тили фраземаларининг компонент таҳлили: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – Б. 22; Вафоева М.Й. Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг структурал-семантик таҳлили: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 26 б.

⁶Дониёров Х. Ўзбек тили “ж” лашган (қипчок) диалектининг фразеологияси устидан кузатишлар // Фразеология масалалари, СамДУ асарлари, янги серия, 106-чиқиши. – Самарканд, 1961. – Б. 80–85; Содиқов Т. Тошкент фразеологиясига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1968. – №4. – Б. 25–27; Узоқов Х. Диалектал фразеологизмлар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1974. – №6. – Б. 60–62; Туропова М. Ўзбек шеваларида фразеологизмлар ва уларнинг лексик состави // Ўзбек тили ва адабиёти, 1987. № 5. – Б. 40–44; Хамидов М. O‘zbek tili janubiy Surxondaryo o‘zbek shevalari barqaror birikmalarining lingvistik xususiyatlari. – Termiz, 2023. – 133 b.

ma'nodoshlik, zid ma'nolilik, ko'p ma'nolilik, variantdoshlik, frazeologizmlar lug'aviy-ma'noviy, grammatik, uslubiy xususiyatlari, sintaktik imkoniyatlari o'z talqinini topgan, frazeologik birliklarni ilmiy tekshirish, tasniflash, lug'atlarda tavsiflashning lingvistik metodlari ishlab chiqilgan. Biroq o'zbek shevalari iboralari, xususan, Qashqadaryo qipchoq shevalari frazeologizmlari tadqiqi, ularning leksikografik talqini monografik planda amalga oshirilmagan. Ayni shu holat mazkur tadqiqotimiz mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbek tilining nazariy-amaliy masalalari" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Qashqadaryo qipchoq shevasiga mansub iboralarning leksik-semantik, struktur xususiyatlari, leksikografik talqini hamda sheva iboralarining adabiy tilga munosabatini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Dissertatsiya mavzusining mazmuni, mohiyati va asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda mazkur ish o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

o'zbek qipchoq shevalari tadqiqini, qipchoq shevasiga xos frazeologik birliklarning dialektologik talqinlarini o'rganish, tadqiqot natijalarini umumlashtirish;

Qashqadaryo qipchoq shevasidagi iboralarni to'plash; ularning leksik-grammatik, semantik xususiyatlarini, sheva iboralarining adabiy tilga munosabati masalasini tahlil qilish va tavsiflash;

Qashqadaryo qipchoq shevasiga mansub iboralarning struktur, morfemik tarkibini, grammatik xususiyatlarini tahlil qilish;

qipchoq shevasiga xos iboralarning lug'aviy-ma'noviy munosabatlarini tekshirish, sinonimik, antonimik, variantdoshlik kabi semantik munosabatlarning sheva iboralariaro amal qilish holatini tavsiflash;

sheva iboralarining lingvistik lug'atlardagi berilishi holatini tahlil qilish, sheva iboralarining izohli lug'ati uchun leksikografik talqin va tavsiflarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida Qashqadaryo viloyati hududidagi qipchoq shevasi leksikasiga mansub iboralar tanlandi.

Tadqiqot predmetini Qashqadaryo qipchoq shevalari iboralarining leksik-semantik, struktur xususiyatlari, leksikografik talqini tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiq jarayonida statistik, tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, komponent tahlil, leksikografik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda o'z ifodasini topgan:

Qashqadaryo qipchoq shevalarida adabiy til tarkibidan o'rin olmagan, adabiy nutq doirasida ishlatilmaydigan bitta sinonimiya uyasiga o'ndan ortiq (*žöli bolmaq, ayzi kalniñ ayzidaj bolmaq, part bolib qalmaq, dimayi çay bolmaq, ayzi kälišdek açilib qalmaq, jārilgudak bolib qalmaq, žürägi tašmaq*) frazeologik sinonimning birikish holatlari aniqlangan;

sheva frazeologizmlari ba'zilar o'zgarishsiz, ba'zilar tarkibida leksema tushishi, ortishi yoki almashishi kabi leksik o'zgarishga uchrashi til egalarining turmush tarzi, kasb-kori, kundalik hayoti, mashg'uloti singarilar bilan bevosita bog'liqligi ochib berilgan;

shevalarda adabiy til tarkibiga kirmagan, tarkibida qadimiy va sof turkiy leksemalarni saqlab kelayotgan minglab frazemalar uchraydiki, ular sheva leksikasida, sheva vakillarining nutqidagina namoyon bo'lishi, ularni o'z vaqtida kekxa avlod nutqidan yozib olish, to'plash, manbalarda aks ettirish, ommalashtirish muhim ekanligi dalillangan;

dialektal frazemalar tizimida grammatik shakllarda o'zgaruvchi iboralar bilan birga, ravish tarkibiga kiruvchi iboralarda, komponentlari ismlar bilan ifodalangan iboralarda hamda hech qanday qo'shimcha olmagan, tuzilishi jihatidan bir xil, bir turkumga mansub iboralarning barchasida ham grammatik shakllanish xususiyati mavjud emasligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Qashqadaryo qipchoq shevasidagi iboralarning leksik-semantik xususiyat va munosabatlari, shakliy-struktur, morfemik, semantik tarkibi aniqlangan;

Qashqadaryo qipchoq shevasi iboralari to'planib, ularning leksik-semantik tahlili va tavsifi amalga oshirilgan;

Qashqadaryo qipchoq shevasidagi iboralarning o'zbek adabiy tiliga munosabati ochib berilgan;

Sheva iboralarning leksik-grammatik xususiyatlari tahlili asosida ularning leksikografik talqini doirasida izoh va tavsifiga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi qo'llangan yondashuv, usul va nazariy ma'lumotlar ilmiy va leksikografik manbalardan olinganligi, amalga oshirilgan tahlillar statistik, tasniflash, tavsiflash, komponent tahlil, qiyoslash metodlariga asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'zbek dialektologiyasi, dialektal leksikografiya bo'yicha nazariy manbalarni boyitish, tilshunoslik, shevashunoslik, leksikografiya, amaliy leksikografiyaga oid darslik hamda qo'llanmalarni takomillashtirish, o'zbek shevalarining zamonaviy akademik, elektron, o'quv lug'atlarini yaratishning tamoyillarini ishlab chiqishga tatbiq qilinishi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati o'zbek tilining milliy, ta'limiy, dialektal korpuslarining ma'lumotlar bazasini, leksikografik materiallarini boyitish bilan izohlanadi. Ta'lim tizimining turli bo'g'inidagi o'zbek dialektologiyasi, leksikologiya, leksikografiya, sheva korpusi bilan bog'liq o'quv predmetlari va maxsus kurslarni o'qitish hamda takomillashtirishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qashqadaryo qipchoq shevasidagi frazeologik birliklarning leksik-semantik, leksikografik talqini va tavsifi yuzasidan olingan ilmiy tahlil, xulosa hamda natijalar asosida:

sheva frazeologizmlari ba'zilar o'zgarishsiz, ba'zilar tarkibida leksema tushishi, ortishi yoki almashishi kabi leksik o'zgarishga uchrashi til egalarining turmush tarzi, kasb-kori, kundalik hayoti, mashg'uloti singarilar bilan bevosita bog'liqligiga oid ilmiy xulosalaridan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan IL-402104209 raqamli "Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o'zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish" amaliy grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 25-fevraldagi 04/1-722-son ma'lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida amalga oshirilgan o'zbek tilining morfoanalizatori dasturida leksik birliklarning morfologik tarkibiga ishlov berish, materiallar bilan boyitish imkonini bergan;

shevalarda adabiy til tarkibiga kirmagan, tarkibida qadimiy va sof turkiy leksemalarni saqlab kelayotgan minglab frazemalar uchraydiki, ular sheva leksikasida, sheva vakillarining nutqidagina namoyon bo'lishi, ularni o'z vaqtida keksa avlod nutqidan yozib olish, to'plash, manbalarda aks ettirish, ommalashtirish muhim ekanligiga oid xulosalaridan Qashqadaryo viloyati teleradiokanali "Fayzli kun" dasturining 2025-yil 18-yanvar sonida foydalanilgan (Qashqadaryo viloyati teleradiokanalining 2025-yil 18-yanvardagi 17-05/48-son ma'lumotnomasi). Natijada dastur davomida o'zbek tili va shevalarining rivoji, jamiyat hayotida tutgan o'rni, sheva va shevaga xos so'z, iboralarning o'zbek adabiy tili rivojidadagi ahamiyati haqidagi ma'lumotlar bilan boyitish imkonini bergan;

Qashqadaryo qipchoq shevalarida adabiy til tarkibidan o'rin olmagan, adabiy nutq doirasida ishlatilmaydigan bitta sinonimiya uyasiga o'ndan ortiq (žöli bolmaq, ayzi kalniñ ayzidaj bolmaq, part bo'lib qalmaq, dımayı çay bolmaq, ayzi kälışdek açilib qalmaq, jārılğudak bolib qalmaq, žürägi taşmaq) frazeologik sinonimning birikish holatlariga oid xulosalari asosida "Qashqadaryo qipchoq shevalari frazeologizmlarining izohli lug'ati" (ISBN 978-9910-698-76-7) tuzilgan. Natijada o'zbek tilidagi dialektal frazemalarni nutqda to'g'ri qo'llash, foydalanishga hissa qo'shilgan hamda sheva iboralari lug'atining izohli variantini yaratish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni yuzasidan 6 ta ilmiy maqola va 11 ta tezis e'lon qilingan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 135 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, maqsad va vazifalari berilgan, obykti va predmeti tavsiflangan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, joriylanishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Qashqadaryo shevalari tadqiqi masalalari”** deb nomlangan. Uning *“Qashqadaryo shevalari tadqiqida frazeologizmlar masalasi”* deb nomlangan 1-paragrafida asosan qipchoq shevalari tadqiqi va unda iboralar bilan bog'liq masalaga e'tibor qaratildi. Ma'lumki, shevalar adabiy tilimiz jozibasini ta'minlovchi, uni oziqlantiruvchi qimmatli manbadir. O'zbek shevalari orasida qipchoq shevasi yurtimiz hududining keng qismiga tarqalganligi bilan ajralib turadi. “Qipchoq shevalari eski o'zbek adabiy tilining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi va ular shuning uchun ham maxsus va keng planda batafsil o'rganishga loyiqdir”⁷. Qipchoq shevalari yuzasidan X. Doniyorov, F. Abdullayev, A. Shermatov, B. Jo'rayev, A. Ishayev, A. Nosirov, S. Rahimov, N. Shoimova singari olimlarimiz tomonidan monografiyalar, lug'atlar va maqolalar e'lon qilingan.

Professor T. Qudratovning “O'zbek tilining oraliq shevalari” nomli tadqiqotida Qashqadaryo vohasining Shahrisabz, Yakkabog', Chiroqchi va Qamashi hududlaridagi shevalarning fonetik, morfologik, leksik xususiyatlari tadqiq qilingan, oraliq shevalarning joylashish chegarasini hamda lingvistik xususiyatlarini ko'rsatuvchi 23 ta lingvistik xarita ham keltiriladi.

Qashqadaryo shevalari leksikasi tadqiqida B. Jo'rayevning ham alohida o'rni mavjud. Uning “O'zbek tilining Shahrisabz shevasi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi, “O'zbek adabiy tili va o'zbek dialektlari” (1963), “Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari leksikasi // O'zbek shevalari leksikasi” (1966) kabi monografik ishlarini alohida qayd etish lozim. Shevashunos “Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari” (1969) nomli tadqiqot ishida Qashqadaryo o'zbek shevalarini shahar, qipchoq va oraliq shevalarga ajratib, har birining fonetik, grammatik va leksik xususiyatlarini aniqlaydi. Ushbu ishning lug'at qismida 1087 ta so'z va ma'nodoshlari izohlangan.

O'zbek dialektologiyasi rivojida X. Doniyorovning ilmiy izlanishlari, xususan, “Qipchoq dialektlarining leksikasi” nomli monografiyasi ham diqqatga sazovor. Olimning fikricha: “biror frazeologizm va standart iboraning shevada tegishli yoki tegishli emasligidagi asosiy o'lchov ularning a) adabiy tilimizda ham uchrash-uchramasligi; b) shu shevada gapiruvchi aholining turmushi bilan qanchalik bog'langanligi; d) uning shevalik xususiyatini o'zida qanchalik aks

⁷ Дониёров Х. Эски ўзбек адабий тили ва қипчоқ диалектлари. – Тошкент, 1976. – Б. 122.

ettirishi; e) uning qadimgi elementlardan qaysi til va dialektlarga mansub bo'lgan qonuniyat va xususiyatlarni saqlab qolganligiga bog'liqligidir"⁸.

Tilshunos A. Shermatovning "Qashqadaryo viloyatining o'zbek xalq shevalari" nomli monografiyasida ham kuzatuvimizdagi hudud qipchoq shevalarining fonetik, morfologik xususiyatlari to'liq ochib berilgan. Ta'kidlanganidek, "Shevaning fonetik, morfologik xususiyatlariga nisbatan leksik xususiyatlari juda kam darajada o'rganilgan"⁹.

Tadqiqotchi N. Shoimovanning "O'rta Qashqadaryo j-lovchi qipchoq shevalari leksikasi" deb nomlangan tadqiqoti ham vo'ha shevalariga xos leksik hodisalarning tadqiqida alohida o'rin egallaydi. Unda faqat qipchoq shevasidagina ishlatiladigan faol leksik birliklar mavzuiy jihatdan tadqiq qilinadi.

Tilshunosligimiz rivojida professor T. Nafasovning alohida xizmati mavjud. Olimning ko'plab ilmiy asarlari, monografiya, lug'atlari, maqolalari, darslik va qo'llanmalari o'zbek onomastikasi, shevashunosligi masalalari tadqiqini ilmiy-amaliy jihatdan boyitishga xizmat qilgan.

Qashqadaryo shevalari tadqiqida X. Jabborovning ham munosib ulushini qayd qilish lozim. Olimning tadqiqotlarida xalqimizning dehqonchilik madaniyati, suv, sug'orish kabi tushunchalar bilan bog'liq xalq tilidagi ko'plab barqaror birikmalar, xususan, iboralar ham o'zining lingvistik talqinini topgan. Jumladan, *bir qoshiq suv bilan yutgudek* (juda suluv, chiroyli); *boshiga suv quymoq* (amalidan, obro'e'tiboridan mahrum qilmoq); *dunyoni suv bossa, to'pig'iga chiqmaslik* (o'taketgan beg'am, haddan tashqari beparvo)¹⁰ singari iboralarni ko'rsatish mumkin.

Qashqadaryo shevalari o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab tilshunoslik, shevashunoslik tamoyillari asosida tadqiq qilinib kelinayotgan bo'lsa-da, hudud shevalariga xos frazeologizmlar maxsus tadqiqot manbai bo'lmagan.

Bobning "Dialektal frazeologizmlar va ularning o'ziga xos belgilari" deb nomlangan 2-paragrafda dialektal frazemalarning o'ziga xos xususiyatlari, adabiy til frazemalaridan farqiga doir kuzatish, tahlil va tavsiflar o'rin olgan.

Dialektal frazeologizmlar uzoq davrlardan buyon tarkibida qadimiy so'z shakllari va chuqur ma'no-mazmunni saqlagan holda avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. Jumladan, *o'lim haq, jon tanani tark etishi tez* ma'nolarini o'zida mujassam etuvchi *žan žayaga žavuuq* iborasi shevaga xos ibora sifatida o'ziga xos ifoda va mazmunga ega. Ibora tarkibida qadimgi tillardan qipchoq tillari guruhiga xos bo'lgan leksik birlik *žavuuq* so'zining qo'llanishini kuzatamiz. Qadimiy so'z hisoblangan leksema qipchoq tili haqida qimmatli ma'lumotlar beruvchi "At-tuhfat uz-zakiyati fil-lug'at it-turkiya"¹¹ lug'atida "yaqin" ma'nosida izohlanadi. Ushbu leksema hozirgi o'zbek adabiy tilida qayd qilinmasa-da, qipchoq shevalarida faoldir. *Žaya* so'zi esa adabiy tildagi *yoqa* so'zining shevadagi variantidir. Qadimgi

⁸ Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Тошкент, 1979. – Б. 103.

⁹ Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. – Тошкент: Фан, 1990. – Б. 54.

¹⁰ Жабборов Х. Ўзбек тилида сув лексемасининг луғавий-маъновий хусусиятлари. – Қарши: Насаф, 2005. – Б. 92–93.

¹¹ Ат-тухфат уз-закияти фил-луғат ит-туркия. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 204.

til unsurlarini o‘zida saqlagan iboralardan yana biri *šišak sojdīn, pišāk sojdīn* iborasidir. Ibora tarkibidagi *šišak* leksemasi ushbu lug‘atda ikki yashar echki¹² ma’nosida izohlanadi. Yoshidan endi oshgan jonliq bo‘yiga o‘shishi natijasida semirmaydi. Qipchoq chorvadorlari esa bu yoshdagi jonliqni go‘sh uchun so‘yish foydasiz ekanligining ta’sirchan, xalqona ifodasi sifatida ushbu iborani yaratgan. Ya’ni shishak misoli pishak, *pišāk* esa *mushuk* so‘zining shevadagi varianti. “Garchi bunday elementlar qanchalik arxaik bo‘lmasin o‘zbek tili tarixini o‘rganishda katta ahamiyatga molikdir”¹³.

“*Dialektal frazemalarning shakllanish asoslari*” deb nomlangan 3-paragrafda Qashqadaryo qipchoq shevalari iboralarning shakllanish asoslariga doir tahlil va tasniflar o‘rin olgan. “O‘zbek frazeologiyasi uchun dolzarb muammolardan biri frazemalarning kelib chiqishi, etimologiyasini o‘rganishdir”¹⁴. Ushbu sohada bir qator olimlarning asarlarida, ilmiy maqolalarida iboralar etimologiyasi xususida so‘z yuritiladi¹⁵. “Iboralar dastlabki yaratilgan vaqtda majoziy ma’noga ega bo‘lmagan u keyinchalik borib majoziy ma’noni, ko‘chma ma’noni kasb etgan”¹⁶. Xususan, *tulubīni čilqillatmaslik* iborasi dangasa, ishyoqmas kishilarni tasvirlash uchun ishlatiladi va uning mazmuni muayyan mehnat jarayoni bilan bog‘liq. Qatiqni suzmaga aylantirish uchun echki terisidan tikilgan xalta – **tulup**ga qatiq solinib, osib qo‘yiladi. Tulup ichidagi qatiqdan zardobning ajralib chiqishi uchun uni tez-tez aralashtirib turish kerak bo‘ladi, bu esa ko‘p mehnat va harakatni talab qiladi. Ushbu jarayonga ishora orqali e’tiborsiz yoki dangasa kishilar tavsiflanadi (Eshqobilova Bo‘rixol, 75 yosh, Xo‘japillos qishlog‘i).

Xajr ishga tash atmāq iborasi “ezgu ishga ozgina bo‘lsa ham, chin dildan hissa qo‘shmoq” ma’nosini bildiradi. Odatda, “tosh otmoq” salbiy ma’noda ishlatilsa-da, ushbu iborada ijobiy mazmun ifodalangan. Ya’ni har qanday xayrli ishlarga imkon qadar ko‘mak berish ma’nosini ifodalashga xizmat qiladi.

Qashqadaryo qipchoq shevasida so‘zlashuvchi aholi hayotiy faoliyati dehqonchilik, chorvachilik va to‘quvchilik bilan uzviy bog‘langan. Ularning asosiy mashg‘uloti chorvachilik bo‘lib, bu sohaning aholi turmush tarzi va tiliga nisbatan kuchli ta’siri kuzatiladi. Masalan, *bazar korgan ječki; atniņ žemini žeb, tajniņ qilīyīni qilmaq; borī kormaq; malīni tiš barīda žemāq; sinidān hōkiz qorqmaq; tilāb alyan jer(im)ni ječki tevib vōltīrmāq* kabi iboralar chorvachilik bilan bog‘liq faoliyat va tajribalar asosida shakllangan.

Qashqadaryo qipchoq ayollarining asosiy mashg‘uloti to‘quvchilik bo‘lib, u bilan bog‘liq jarayon, tushunchalar iboralarda ham aks etgan. Masalan, *sansizniņ*

¹² Ko‘rsatilgan manba: – B. 277.

¹³ Содиқов Т. Тошкент область ўзбек шевалари лексикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1968. – Б. 106.

¹⁴ Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографиясининг шаклланиши ҳамда тараққиёти (монография). – Самарқанд, 2013. – Б. 72.

¹⁵ Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар маҳзани. – Тошкент, 2001. – Б. 448; Шомақсудов Ш., Долимов С. Қайроқи сўзлар. – Тошкент, 2011. – Б. 224. Исҳоқов Ф. Даққиюнус // “Фан ва турмуш” журнали, 1997. – № 4. – Б. 13–14; Жаъфарова Д.И. Француз ва ўзбек тилларида тарихий хотирани ифодаловчи фразеологик бирликларнинг лисоний хусусиятлари. – Тошкент, 2022. – Б. 176. Хамидов М.А. О‘zbek tili janubiy Surxondaryo o‘zbek shevalari barqaror birikmalarining lingvistik xususiyatlari. – Termiz, 2023. – B. 133.

¹⁶ Шомақсудов Ш., Долимов С. Қайроқи сўзлар. – Тошкент, 2011. – Б. 4–5.

sabayi uzun, kaltä žip kirmavga kelmäs, iši xoržin, arqaviñi tartmaq, bojni šardazdaj, kalabasi žitmaq, určuqdaj ajlanmaq, boj jurgunča, en jurmaq, ajayin astida ala xoržin, bir xoržin semirmāq kabi iboralar ma’nosi gilam to‘qish jarayonidagi holat, belgi-xususiyatlar bilan bog‘liq.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Qashqadaryo qipchoq shevalari frazeologizmlarining shakl va ma’no munosabati”** deb nomlanadi. Uning tarkibida sheva frazeologizmlari sinonimligi, antonimligi va variantdoshligi masalasi tahlil qilingan. *“Sheva frazeologizmlari sinonimiyasi”* deb nomlangan 1-paragrafida Qashqadaryo qipchoq shevalari iboralarining sinonimiyasi ko‘rib chiqildi. Sinonimlik lug‘at tarkibining alohida, o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turuvchi birligi – frazeologizmlarda ham kuzatiladi. “Frazeologiya bobida ham bir tushuncha yo tasavvur yoki nisbiy tugal fikr bitta frazeologik ibora bilan ifodalanganidek, bir necha frazeologik ibora bilan ham ifodalanishi mumkin. Bunday ekvivalent iboralar frazeologik sinonimlar deb yuritiladi”¹⁷.

O‘zbek tilshunosligida H. Shamsiddinov so‘z va frazeologizm o‘rtasidagi sinonimik munosabatni chuqur o‘rganadi¹⁸. Frazeologik birliklar sinonimiyasi masalasi Sh. Rahmatullayev tomonidan ham atroflicha tadqiq qilingan. “Frazeologik sinonimiya uchun umumiy va eng muhim mezon – bu semantik mezondir. Har bir sinonimik uyadagi frazeologik birliklar obyektiv borliqdagi bir xil tushunchalarni anglatishi kerak va shu bilan birgalikda, bir xil ma’noni anglatishi shart”¹⁹ligi ham ta’kidlanadi. Tadqiqotchi M. Ro‘ziqulova sinonim frazeologizmlarni semantik-stilistik jihatdan o‘ttizdan ortiq guruhga ajratadi. O‘zbek frazeologiyasining yetakchi tadqiqotchilaridan B. Yo‘ldoshev sinonim iboralarining uslubiy tarmoqlanishi bilan birga frazeologik sinonimiya va frazeologik variantdoshlikning farqlarini qayd etib, “frazeologik sinonimlar faqat ma’no nozikliklariga ko‘ra emas, balki uslubiy bo‘yog‘i, qo‘llanilish doirasiga ko‘ra ham o‘zaro farqlanadi”, deb ta’kidlaydi²⁰. Tadqiqotchi M. Vafoyeva esa frazeologik sinonim uyalarini, ularning chegarasini, bosh – dominant frazeologizmlarni belgilashning qator omillarini qayd qiladi²¹.

O‘zbek tili iborolari tizimida o‘ziga xos lisoniy, madaniy, etnografik belgi va xususiyatlarga ega Qashqadaryo qipchoq shevalari iborolari tizimida ham ma’nodoshlik keng kuzatiladi. Bitta sinonimiya uyasiga o‘ndan ortiq frazeologik sinonim birlashish holatlarini uchratamiz. Jumladan, “xursand bo‘lmoq” ma’nosini ifodalovchi *žöli bolmaq, ayzi kalniñ ayzidaj bolmaq, part bo‘lib qalmaq, dimayi*

¹⁷ Пинхасов С. Хозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1969. – Б. 165–166.

¹⁸ Шамсиддинов Х. Сўзларнинг функционал-семантик синонимлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1995. – №1. – Б. 65–69; Шамсиддинов Х. Ўзбек тилида сўзларнинг функционал-семантик синонимлари: Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – Б. 14–35.

¹⁹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 1966. – 500 б.

²⁰ Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. – Самарқанд: СамДУ, 1999. – Б. 69–71.

²¹ Вafоева М. Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг структурал-семантик таҳлили. – Тошкент, 2009. – Б. 12.

čay bolmaq, ayzi kălišdek açilib qalmaq, terisigă siymaj qalmaq, jărilgudak bolib qalmaq, tişiniñ aqini korsatmaq, žürăgi taşmaq kabilar.

Ushbu sheva leksikasidagi *bavur basmaq* va *hirs qo‘ymoq* holat bildiruvchi iboralari ham o‘zaro sinonimik munosabatda bo‘lib, “biror narsa-buyum yoki mol-mulkka juda kuchli mehr qo‘ymoq” ma’nosiga ega. *Korasī kormagan* va *insabini it žegān* iboralari ham bitta sinonimik uyaga mansub bo‘lib, “ochko‘z, nafi buzuq, o‘taketgan insofsiz” degan ma’noni o‘zlarida mujassam etgan. Frazeologik sinonimlar qatoriga kiruvchi iboralarning ba’zilari teng ma’noga ega bo‘lib, birini ikkinchisining o‘rnida erkin qo‘llash mumkin bo‘ladi, ammo ba’zi sinonim iboralar ma’nolarida farq sezilib turadi. Shu jihatiga ko‘ra, frazeologik sinonimlarni leksik sinonimlardagi kabi ikki guruhga ajratish lozim:

1) to‘liq frazeologik sinonimlar; 2) ma’noviy frazeologik sinonimlar.

To‘liq frazeologik sinonimlar – ma’nosi va ishlatilishida bir-biridan farq qilmaydi. *Taş atmaq* hamda *laj čaplamaq* iboralari “xushlamaslik, yoqtirmaslik” ma’nosini anglatadi. *Ma’noviy frazeologik sinonimlar* – bir-biridan ma’no ottenkalariga ko‘ra farq qiladi. *Taşi ‘örgă žumalayan, kel-keli kegān, sürüvigă borī aralayan, ‘oñ tamanīdan türgān, ‘ertälăb borī korgan, dăvi kemaq* sinonim iboralari “omadi kelgan”; *ičidă găp(v) žatmaslik – avzi boş* iboralari “eshitgan, guvohi bo‘lgan xabar, voqea-hodisani tezda birovga yetkazadigan, sir saqlay olmaydigan” degan ma’noni ifodalash uchun turli nutq vaziyatlarida faol qo‘llanishi kuzatiladi.

“Qattiq charchamoq”, “holdan toymoq” ma’nolari *ayog‘idan asilmaq, sillasi qurımaq, tinka-madarī qurımaq, kokaži qurımaq, kokaži kesilmoq* kabi sinonim iboralar orqali ifodalanadi, ularning ma’no farqlilik belgisi charchoqning darajasi bilan bog‘liq hisoblanadi.

“Frazeologik birliklar tilda ko‘plab uchraydigan, fikrni keng va obrazli, o‘tkir ma’noli qamrovli ifodalaydigan til birligi sifatida, hamma vaqt tuzilishiga ko‘ra tarkiblidir”²². Frazeologik sinonimlarni struktural xususiyatlariga ko‘ra ikki: tashqi va ichki guruhga ajratamiz. Tashqi strukturasiga ko‘ra, ya’ni frazeologizm komponenti sifatida ishtirok etayotgan leksemalar miqdoriga qarab ularni yana ikki guruhga ajratish mumkin: 1) teng komponentli frazeologik sinonimlar; 2) har xil komponentli frazeologik sinonimlar. Ushbu bo‘linishlar o‘z ichida yana guruhlanadi: *bir xil komponentli, har xil komponentli frazeologik sinonimlar* kabi.

Bobning ikkinchi paragrafi “*Sheva frazeologizmlari antonimiyasi*” deb nomlanadi. Ma’lumki, antonimiya tilning barcha birliklari qatori frazeologizmlar o‘rtasida ham kuzatiladi. “Frazemik antonimlar inson fikr almashinuvi jarayonida keng qo‘llanilib, insonning individual va ijtimoiy faoliyati va sifatleri, his-hayajoni, borliqni anglashi hamda uning ma’naviy hayotga u yoki bu tarzda munosabati asosida shakllanadi”²³.

²² Маматов А. Фразеологик стилистика масалалари. – Тошкент, 1991. – Б. 18.

²³ Маматов А., Болтаева Б. Фразеологик birliklarning lingvomadaniy va semantik-pragmatik tadqiqi. – Тошкент, 2018. – Б. 91.

Tilshunosligimizda frazeologik antonimiya masalalari doirasida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar ancha kam. “Antonimiya barcha frazeologik birliklarning taxminan ikki foiziga xos hodisadir”²⁴.

Frazeologizmlarda antonimlik hodisasi Sh. Rahmatullayevning “O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari” nomli monografiyasida atroflicha tadqiq qilingan. Asarda iboralarda polisemiya, sinonimiya, omonimiya hodisalari qatorida antonimiya hodisasi ham boy daliliy materiallar asosida tahlil qilinadi.

A. Mamatov, B. Boltayeva “Frazeologik birliklarning lingvomadaniy va semantik-pragmatik tadqiqi” nomli monografiyasida frazeologik antonimlarni til va madaniyat mushtarakligining namunasi sifatida ma’noviy, pragmatik jihatdan tadqiq qiladilar. Ushbu tadqiqot orqali o‘zbek shevalari frazeologiyasini ham lingvomadaniy va semantik-pragmatik aspektda tadqiq qilish imkoniyatlariga yo‘l ochildi.

Biz tomonimizdan Qashqadaryo qipchoq shevasida so‘zlashuvchi kishilar nutqidan yig‘ilgan frazeologizmlarning ma’lum bir qismi adabiy til leksikasida ham mavjud bo‘lsa, ma’lum bir qismi qipchoq shevasigagina tegishli deb hisoblaymiz. Jumladan, sheva nutqida qo‘llanuvchi *ajayi žorya* (chaqqon, mehnatsevar) va *tulubini čilqillatmaslik* (dangasa, ishyoqmas); *qoli žuqa* (kambag‘al) – *bavi mahkam* (badavlat) kabilar o‘zaro antonim iboralardir.

Antonim iboralarning quyidagi turlari ajratiladi: a) *bir frazema tarkibidagi antonimlik*; b) *frazemadan anglashilgan ma’no qarshiligi asosidagi antonimlik*; d) *frazema komponentlari orasidagi antonimlik*²⁵. Ushbu antonim frazeologizmlar guruhlarini e) *yaxlit mazmun asosidagi antonimiya (dimog‘i chog‘ – avzoyi soliq, chap tarafidan turgan – ertalab bo‘ri ko‘rgan)* bilan boyitishimiz mumkin.

Antonim frazeologizmlarning biri yoki har ikkisi ham polisemantik bo‘lishi mumkin. Shu jihatiga ko‘ra, ularni prof. Sh. Rahmatullayevning ilmiy qarashlariga tayangan holda ularni quyidagi guruhlariga ajratish maqsadga muvofiq:

1. Monosemantik frazeologizmlar orasidagi antonimiya: *kozi toq – kozi oč*. Keltirilgan antonim iboralar bir ma’noli sanaladi.

2. Monosemantik frazeologizm bilan polisemantik frazeologizm orasidagi antonimiya: *konlini čoktirmaq – konlini kotarmaq*. *Konlini čoktirmaq* bir ma’noni, ya’ni “ruhini tushirmoq” ma’nosini ifodalasa, *konlini kotarmaq* frazemasini polisemantik xususiyatga ega. *Konlini kotarmaq* 1 “ruhlantirmoq”; 2 “taskin bermoq”.

3. Polisemantik frazeologizmlarning bitta ma’nosi asosidagi antonimiya: *ajayi čiqmaq – ajaqdan qalmāq*. *Ajayi čiqmaq* “serharakat bo‘lmoq”, *ajaqdan qalmāq* “betoblik yoki keksalik tufayli harakatsiz bo‘lib qolish”. *Ajaqdan qalmāq* iborasi “narsa-buyumning urfdan chiqib qolishi”, “iqtisodiy jihatdan nochor ahvolga tushish” kabi ma’nolarni ham ifodalashga xizmat qiladi.

²⁴ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. – Тошкент: Фан, 1966. – 264 б.

²⁵ Маматов А., Болтаева Б. Фразеологик birliklarning lingvomadaniy va semantik-pragmatik tadqiqi. – Тошкент, 2018. – Б. 91–92.

4. Polisemantik frazeologizmlarning birdan ortiq ma'nolari orasidagi antonimiya: *opkasī tolīb kelmāq – opkasīni basmaq*. *Opkasī tolīb kelmāq* 1. “yig‘lash darajasiga kelmoq”, 2. “kuchli alandan xafa bo‘lmoq”. *Opkasīni basmaq* 1. “yig‘idan o‘zini to‘xtatmoq”, 2. “jahldan tushmoq, o‘ziga kelmoq”. *Koñlīni kotarmaq* hamda *opkasī tolīb kelmāq* frazemalari “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da bir ma’noli ibora sifatida qayd qilingan.

Antonim frazeologizmlar ham tilning lug‘at tarkibini boyitish, kengaytirish, shuningdek, fikrning o‘tkir, ta’sirchan va samarali bo‘lishini ta’minlashning muhim vositasi hamdir.

Ikkinchi bobning “*Sheva frazeologizmlarida variantdoshlik*” deb nomlangan uchinchi paragrafida iboralar variantdoshligi masalasiga diqqat qaratildi. Iboralarda variantdoshlik hodisasi qator ishlarning tadqiq obyekti bo‘lgan.

O‘tgan asrning ikkinchi yarmida “Turkiy tillar materialida, shu jumladan, o‘zbek tili materialida frazeologik variatsiya deyarli o‘rganilmagan. O‘zbek tili frazeologik boyligida shunday hodisani borligi allaqachon sezilgan, alohida ta’kidlangan-u, ammo “frazeologik variant” tushunchasi va termini kiritilmagan”²⁶ligini ta’kidlagan Sh. Rahmatullayev tomonidan frazeologik variantdoshlik hodisasi bir qadar o‘rganilgan²⁷. Olim variantdosh iboralar, ularning sinonim iboralardan farqli jihatlari, ularning o‘zaro munosabatlari yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini bildiradi. Professor B. Yo‘ldoshev ham frazeologik sinonim va frazeologik variant masalasiga o‘z munosabatini bildirgan²⁸. M. Turopova tomonidan shevalar frazemasini variantlarga ajratishda iboralarning bitta obrazga tayanishi, bir-biridan ma’no otenkalarida farq qilishi hamda ularning bir umumiy leksik komponentlarga ega bo‘lishi ta’kidlanadi²⁹.

Frazeologik variant tushunchasi “ichki grammatik o‘zgarishga uchragan yoki komponenti sinonim so‘z bilan almashtirilgan ibora” sifatida tavsiflanadi³⁰.

Qipchoq shevalari iboralar tizimida variantdosh iboralar ham salmoqli o‘rin egallaydi, har bir iboraning turli variantlari ham kuzatiladi. Jumladan, o‘zbek tilidagi “boriga qanoat qilmaydigan”, “ochko‘z” kabi ma’nolarni ifodalovchi *nazari och* iborasining leksik varianti sifatida *ko‘zi och*, *dasturxon och*, *qozoni och* singari variantdosh iboralar sheva nutqida faol qo‘llaniladi.

Tarkibidagi almashuvchi komponentlariga ko‘ra shevaga xos variantdosh iboralarni ikki guruhga ajratish mumkin:

1) komponenti ma’nodosh bo‘lgan variantdosh iboralar (*tumshuyi asmanda – ijagi asmanda*, *dev urgan – jin urgan*, *juragi taza – koñli taza* kabi);

²⁶Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек тилидаги образли феъл фразеологик бирликларнинг асосий грамматик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Москва, 1952. – 21 б.

²⁷Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 1966. – 145 б.; Раҳматуллаев Ш. Фразеологик бирликларнинг асосий маъно турлари. – Тошкент: Фан, 1955. – Б. 225.

²⁸Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. – Самарқанд, 1998. – Б. 65-72.

²⁹Туропова М. Фразеологик вариантлар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1988. – № 5. – Б. 30–34.

³⁰Бертагаев Т.А., Зимин В.И. О синонимии фразеологических словосочетаний в современном русском языке // Русский язык в школе. – Москва, 1960. – №6. – С. 4.

2) komponentlari ma’nosi yaqin bo‘lgan variantdosh iboralar (*avzi palvan – avzi katta, patagiga qurt tuşgan – pajtavasiga qurt tuşgan, qarın dombira čalmaq – qarın nayara čalmāq* kabilar).

Variantdosh birliklarni yuzaga kelish asosiga ko‘ra ikki guruhga ajratish mumkin: 1) leksik variantlar; 2) grammatik variantlar.

Leksik variantlar ibora tarkibidagi komponentlar almashishi, ortishi hamda tushishi natijasida yuzaga keladi. Ibora tarkibidagi komponentlarning almashinishi ba’zan asos, ba’zan yordamchi qismda kuzatiladi. Asos qismdagi leksik almashish doirasida quyidagilarni: *rañi bo‘zarib ketmaq, rañi oyarib ketmaq* hamda yordamchi qismdagi leksik almashish sifatida *talli tamaq, širın tamaq* kabilar qayd qilinishi lozim.

Grammatik variantlar ibora tarkibining grammatik o‘zgarishi, ya’ni biror grammatik qismning almashishi, ortishi, tushishi hamda tartibi o‘zgarishi natijasida ham yuzaga keladi. Jumladan, *tülkini inilätgän tazıdaj – tülkini inilätgän tazı kabi; žartı tabaqqā žan pıtmaq – žartı tabaqqā žan pıtkäzmaq; ırgä batır – ırgä batırı; balaga žolıqqır – balagınaga žoluqqur* kabilarda grammatik variantlilik kuzatiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Qashqadaryo qipchoq shevalari frazeologizmlarining grammatik tabiati, leksikografik talqini”** deb nomlangan. Uchinchi bobning 1-paragrafi *“Sheva frazeologizmlarining struktur xususiyatlari”* deb nomlanadi. Qashqadaryo qipchoq shevalari frazeologizmlari tadqiqi davomida sheva leksikasida adabiy tilda ham mavjud, ulardan leksik va grammatik farq qiluvchi hamda adabiy tilda uchramaydigan frazeologizmlar kuzatildi. Jumladan, *lipti kujgan* (ozib-to‘zib ketgan), *žala žavdı* (bir paytda ikki yoki uch kishining bir kishiga nisbatan ta’na-dashnom qilishi), *qojından alib, qonžıyā salmaq* (biron narsa-buyumni o‘zining yaqin kishisiga bermoq, hadya qilmoq), *ındijini urıb ketgän* (jismoniy ahvoli yomon; odamgarchiligi yo‘q), *kel-keli kemāq* (omadi kelmoq), *uyi singan* (ayoli vafot etgan), *ko‘kayı kesilmaq* (juda uzoq yurish natijasida holdan toymoq; sarson-sargardon bo‘lmoq) singlarlar adabiy til leksikasida uchramaydi. Shevadagi *ovız-burun kesganday* iborasi “jimjitlik, hech qanday tovush-sharpasiz” ma’nosini ifodalasa, adabiy tilda ushbu ma’no ifodasi uchun *suv quyganday* iborasi qo‘llanadi.

Tilshunos I. Sodiqov tasnifiga tayangan holda³¹ Qashqadaryo qipchoq shevalari iboralarini leksik jihatdan quyidagi turlarga ajratishni lozim topdik:

1. Adabiy til iborasidan bitta komponenti bilan farq qiluvchi iboralar: *boshida kaltak sinmoq – bašıda tajaq sinmaq (shv.)*.

2. Adabiy til iborasidan ikkita komponenti bilan farq qiluvchi iboralar: *daryoga oborib, sug‘ormay kelmoq – suvga abarib, suvlamaj qajtmāq (shv.)*.

3. Bir komponentning birdan ortiq komponentga aylanishi: *to‘rt tarafi qibla – tort tarafi keñ majdan (shv.)*.

4. Birdan ortiq komponentning bir komponentga aylanishi: *yuragi qoq yorilmoq – juragi qaq vortasidan bolinmāq (shv.)*.

³¹ Содиқов Т. Тошкент область ўзбек шевалари лексикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1968. – Б. 116.

